

FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLARDASHYOVIIY HUQUQLAR

Yaxshiboyev Mirvohid Gulboy o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Tel: +99893-060-03-16 e-mail: yaxshiboyevmirvohid@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17123133>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik huquqiy munosabatlarda ashyoviy huquqlarning mazmuni, turlari va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Ashyoviy huquqlar mulk huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxslarning mol-mulk ustidan egalik qilish, undan foydalanish hamda tasarruf etish imkoniyatlarini belgilaydi. Maqolada milliy qonunchilik va nazariy manbalar asosida ashyoviy huquqlarning huquqiy tabiatiga to'xtalib o'tilgan, shuningdek, ularning fuqarolik muomalasidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik huquqi, ashyoviy huquqlar, mulk huquqi, egalik, foydalanish, tasarruf, majburiy huquqlar, fuqarolik muomalasi.

Jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi fuqarolik huquqining eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish va ularni erkin muomalaga kiritish imkonini beruvchi institutlar orasida ashyoviy huquqlar alohida o'rin egallaydi. Ashyoviy huquqlar shaxsning muayyan ashyo ustidan bevosita hukmronlik qilishini ta'minlaydi va mulk huquqi hamda unga yaqin institutlar tizimini qamrab oladi.

Bugungi kunda fuqarolik huquqiy munosabatlarda ashyoviy huquqlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki ular orqali fuqarolar va yuridik shaxslar o'z mulkiy huquqlarini amalga oshiradi, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun huquqiy zamin yaratiladi. Shu bois mazkur institutning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish huquqshunoslik fanida ham, huquqni qo'llash amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Majburiyat huquqlari bilan ashyoviy huquqlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun xizmat qiladilar. Shu ma'noda ashyoviy huquqlar mulk muayyan subyekt tomonidan egallanishini, unga mansubligini tavsiflab beruvchi iqtisodiy munosabatlarni, ya'ni doimiy muvozanat (statik) holatini ifodalovchi munosabatlarni, majburiyat huquqlari esa bir shaxsdan ikkinchi shaxsga tovar harakati, mol-mulk o'tishi jarayonini, ya'ni dinamik munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qiladilar. Ashyoviy huquqlar mohiyatini va ularning boshqa fuqarolik huquqlardan farqini to'laroq tushunish uchun ashyoviy huquqlarning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratish lozim.

Ashyoviy huquq mutlaq (absolyut) huquqdir. Ashyoviy huquqlarning mutlaqligi, ushbu huquqlarning (mulk huquqi, xo'jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi, servitut va boshqalar) subyekti, uning ashyoga nisbatan huquqini buzmaslikka majbur subyektlarning cheklanmagan doirasiga qarshi turganligidir. Bunga qarama-qarshi majburiyat huquqlari egalariga u bilan majburiyat munosabatlarda bo'lgan shaxslarning cheklangan guruhi qarshi turadi.

Ashyoviy huquqlarning navbatdagi farqlovchi xususiyati bo'lib, uning obyekti hisoblanadi. Majburiyat huquqlardan farqli o'laroq ashyoviy huquqlarning obyekti bo'lib xususiyl alomati bilan belgilangan ashyolar hisoblanadi. Turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar, nomoddiy ne'matlar ashyoviy huquqlarning obyekti bo'lmaydi.

Ashyoviy huquqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib ergashma huquq hisoblanadi.

Ergashma huquqning mohiyati ashyoga nisbatan mulk huquqi va o'zga ashyoviy huquqlar boshqa shaxsga o'tishi ushbu huquqlar tugatilishiga asos bo'lib hisoblanmasligidir. FK 169-moddasining ikkinchi qismiga binoan mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi. Agar ashyo oldi-sotdi shartnomasiga asosan boshqa subyektga o'tgan bo'lsa, ashyoviy huquq uning ortidan borishda davom etadi. Bu borada fuqarolik huquqi nazariyasida, shak-shubhasiz, mulkka nisbatan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishi, ushbu mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarni tugatilishi uchun asos emasligi e'tirof qilingan.

Mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar nafaqat mulkdorlarga, balki fuqarolik muomalasining boshqa shaxslariga ham tegishli bo'lishi mumkin, shuning uchun ular "cheklangan ashyoviy huquqlar" deb nomlanadi. Cheklangan ashyoviy huquqlar har doim mulk huquqining hosilasi bo'lib, ular kamroq huquqlar hajmi bilan farq qiladilar. Mulkdor cheklangan ashyoviy huquqlar amal qilish vaqtida mol-mulkka nisbatan mulk huquqini saqlab qoladi, lekin u yoki vaqtincha, yoki muddatsiz, yoki muayyan darajada ushbu huquqni amalga oshirishda o'zini cheklab qo'yadi. Demak, cheklangan ashyoviy huquqlar mavjudligi mulkdorning huquqlarini o'ziga xos cheklanishidir¹.

Cheklangan ashyoviy huquqlarning obyekti bo'lib, odatda, har doim ko'chmas mulk hisoblanadi. Cheklangan ashyoviy huquqlar faqatgina muayyan maqsadlarda obyektidan foydalanish imkoniyatini beradilar. Cheklangan ashyoviy huquqlar ma'lum ashyodan uzoq vaqt davomida foydalanish, boshqa shaxsga ashyoga mulk huquqi o'tish sababli ularda paydo bo'lishi mumkin salbiy oqibatlardan o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadini ko'zlagan shaxslarning mulkiy manfaatlariga xizmat qiladilar. Cheklangan ashyoviy huquqlarning ro'yxati FKning 165-moddasi 1-qismida keltirilgan bo'lib, ularga xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi, servitutlar kiradi.

FKning 165-moddasida qat'iy ifodalangan ashyoviy huquqlarga "taxminiy" quyidagi huquqlarni keltirish mumkin: daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishdan keladigan foydani mustaqil tasarruf etishni ta'sis etish huquqi (FK 180-moddasining ikkinchi qismi), ipoteka va zakalat ko'rinishidagi garov (FKning 265-moddasi), ushlab golish (290-modda), mulkdor oila a'zolarining huquqlari, shuningdek, uy-joydan foydalanish, mulkdor bilan birga doimiy yashovchi fuqarolarning huquqlari (1998-yil 24-dekabrda Uy-joy kodeksining 32-moddasi) va uy-joy kvartirani umrbod ta'minlash sharti bilan berish shartnomasi bo'yicha (FKning 530-534-moddalari) yoxud merosdan voz kechish asosida (Uy-joy kodeksining 121-123-moddalari), sotib olish sharti bilan ijara huquqi (FKning 556-moddasi, 541-modda va Uy-joy kodeksining 89-moddasi, kooperativ a'zosining kooperativdagi kvartirani sotib olishgacha bo'lgan huquqi (Uy-joy kodeksining 100-101-moddalari), shuningdek, muddatli boshqaruv (FKning 187-moddasi). O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ashyoviy huquqlarning taxminiy ro'yxati bahslidir².

¹ Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Общие положения. - М.: Статут. 1997. - С. 222-237;

² V.R. Topildiyev. Fuqarolik huquqi. Darslik. Umumiy gism. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. – 370- bet

Sivilistikada garov va ijaraning turlarining ashyoviy huquqlarga taaluqliligi xususida ko'plab tortishuvlar mavjud. Amalda barcha mashhur ashyoviy huquq klassifikatsiyalari mulk huquqi egalik bilan bir xil darajada uning chegarasidan tashqarida bolishidan kelib chiqadi.

Lekin ularning barisi mukammal emas, huquq subyektlari (davlat, unitar korxonalar, fugarolar) va obyekt turlari (yer, uy-joy) ga nisbatan qat'iy qaramlikka yo'l qo'yadi. Shu bilan birga, ashyoviy huquq mazmuni huquqni belgilovchi ushbu parametr yoki kriteriyalarga eng kam asoslanishi kerak.

Mulk huquqining o'zinikiga nisbatan, boshqa ashyoviy huquqlarning begona mulkka nisbatan, amalga oshirishning shubhasiz fakti sivilistlarning ashyoviy huquqlar turining bo'linishi va mulk huquqining ularning tizimida markaziy figura deb hisoblashga doir kam uchraydigan yakdillikni ta'minladi. Bunday birlamchi dixotomiyaga o'z xayrixohligini qonun chiqaruvchi ham FKning 2-bo'limida bildirdi, shuningdek, bir vaqtning o'zida mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquq bitta obyektga nisbatan birlashishi mumkin emasligiga nisbatan ham munosabat bildirgan.

Tasnifning birinchi bosqichini bo'linish kriteriysi shaxsning mulkka munosabati bo'lgan juftlik hosil qiladi:

- mulk huquqi;
- boshqa ashyoviy huquqlar;

ikkinchi bosqichda mulk huquqi, mulkdorning ashyoga bo'lgan cheklangan huquqlari mavjud yoki yo'qligiga qarab:

- toliq;
- yuklangan huquqlarga bo'linadi.

Boshqa ashyoviy huquqlar mulk huquqi bilan raqo-batlashadi va unga hamrohlik qiladi yoki garshi turadi, ya'ni mulk huquqiga nisbatan pozitiv yoki negativ huquqlarni hosil qiladi.

uchinchi bosqichda pozitiv huquqlar (ashyodan foydalanish huquqlari), begona mulkga ta'sir darajasi va ulardan keladigan hosil yoki daromadning taqdiriga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- servitut huquqlari - ularga servitutlar (FK, 173-m.), mulkdor oilasi a'zolari va ular bilan doimiy yashovchi fuqarolarning turar joydan foydalanish huquqi (Uy-joy kodeksi, 32-m.); turar joyni begonalashtirish shartnomasiga ko'ra turar joydan umrbod foydalanish huquqi, umrbod ta'minlash sharti bilan (FK, 530-534-m.) yoki meros qoldirish orqali undan voz kechish (Uy-joy kodeksi, 121-123-m.). -foydalanish huquqlari, ular o'z ichiga xo'jalik yuritish va operativ boshqaruv huquqlari (FKning 176-181-m), yerdan meros goldirish huquqi bilan doimiy foydalanish, doimiy foydalanish va yer uchastkasidan foydalanish huquqlari (Yer kodeksi, 19, 20-m), muassasaning daromad keltiruvchi faoliyatini amalga oshirib, olingan foydani mustaqil tasarruf etish huquqi (FK, 180-m).

Negativ huquqlar (ashyoni qaytarib olish huquqlari), o'zganing mulkiga nisbatan real hokimiyat o'rnatishga yoki undan kompensatsion boylik olishga qaratilganligiga qarab, quyidagilarga bo'linadi:

- egallash huquqi, unga muddatli egalik (Fkning 187-moddasi), keyinchalik sotib olish bilan ijara huquqi (FK 556-m, Uy-joy Kodeksining 41, 89-m), shirkat a'zosining sotib olishgacha shirkat kvartirasiga bolgan huquqi (Uy-joy Kodeksining 99-m).

- garov huquqi, u zakalat, ipoteka shaklidagi garovga qo'yish huquqlari (FKning 265-m) va ushlab qolishdan (FKning 290-m) iborat.³

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fuqarolik huquqiy munosabatlarda ashyoviy huquqlar shaxslarning mulkka bo'lgan erkinligi va huquqiy imkoniyatlarini kafolatlaydigan eng muhim institutlardan biridir. Ushbu huquqlar mulkni egallash, undan foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida tartib va adolatni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ashyoviy huquqlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash nafaqat fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, balki iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Demak, ashyoviy huquqlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotda to'g'ri qo'llash bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Muxammadiev A.A. Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi tamoyillarining amal qilish. Avtoref diss.yu.f.n. - T.: 2006. - B. 10.
2. Гражданское право: В 2-х т. Т.1. Учебник. Отв. ред. Е.А. Суханов (Автор этой главы Е.А. Суханов). - М.: БЕК. 1998. - С. 421.
3. Гражданское право. Часть первая. Под ред. Т.И. Илларионова, Б.М. Гонгало, В.А. Плетнева (автор этой главы Т.И. Илларионова). - М.: Норма-Инфра. 1998. С. 324.
4. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Общие положения.
5. М.: Статут. 1997. - С. 222-237; Ефимова Л.Г. Указ. соч. С. 35-44; Вещные права в Республике Казахстан. - С. 453
6. V.R. Topildiyev. Fuqarolik huquqi. Darslik. Umumiy gism. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. - 592 bet.

³ Гражданское право: В 2-х т. Т.1. Учебник. Отв. ред. Е.А. Суханов (Автор этой главы Е.А. Суханов). - М.: БЕК. 1998. - С. 321